O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
G.I. Muxamedov
______________
2023 yil "__" ______

# TARIX O`QITISH METODIKASI
# O'QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Ta'lim |
| Ta'lim sohasi: | 110000 - Ta'lim |
| Talim yo'nalishi: | 60111100 – Tarix |

Chirchiq – 2023

| Fan/modul kodi TO`M203 | O'quv yili 2024-2025 | | Semestr IV | ECTS - Kreditlar 4 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi Majburiy | Ta'lim tili O'zbek/rus | | | Haftadagi dars soatlari 4 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Tarix o`qitish metodikasi | 60 | | 60 | 120 |

2.

**I. Fanning mazmuni**

**Fanni o'qitishdan maqsad** – talabalarni umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitiladigan tarix fanlarining maqsadini, ta'lim-tarbiya vazifalari, mazmuni, metod va usullarini o'quvchilarga tarixdan puxta bilim berish, ularni milliy g'oya ruhida tarbiyalash va kamol toptirishda hamda tarix o'qitishning eng muhim vositalarini belgilashga mos bilim va ko'nikmalarini shakllantirish.

**Fanning vazifasi** - talabalar ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish, ta'lim jarayoning samaradorligini oshirish, zamon talablari va innovason pedagogik texnologiyalar asosida tarix fanini o'qitishga bo'lgan munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish.

**II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Tarix o'qitish metodikasi faniga kirish**

Tarixni o'qitishning ahamiyatini tushunish. Tarixning fan sifatidagi ahamiyatini va uning ta'limdagi o'rnini belgilash. Tarixni o'qitish tizimining tadriji va taraqqiyoti. Tarixiy fikrlash qobiliyatlari. Tarixni o'qitish bo'yicha tadqiqotlar, ularning tahlili. Mahalliy (Milliy dastur) va halqaro o'quv dasturlari (Kembridj, Oksford dasturlari) standartlarining umumiy tavsifi va tahlili. Tarixni o'qitishda xorij tajribasi. Tarixning o'qitishning o'ziga xos strategiyalari. Talab etiladiga kompetensiyalar va ularni takomillashtirish uslublari.

**2-mavzu. Tarix fanlarining o'quv-tarbiya jarayonida milliy va xalqaro o'quv dasturlari standartlariga mos o'quv-uslubiy ta'minotga qo'yilgan talablar**

Tarix ta'lim bo'yicha xalqaro standartlarga mos darsliklar, ularning tahlili va o'ziga xos xususiyatlari. Moslashtirilgan ta'lim resurslari. Darsliklar kontentining ilmiy tadqiqotlar va tarixiy dalillarga asoslanilganligi. Kontekstli ma'lumotlar bilan boyitilganligi. Qo'shimcha materiallar va ularga qo'yilgan talablar. Darsliklarda tarixiy tushunishni turli jihatlarini baholash bo'yicha ish turlariga qo'yilgan talablar. Bir nechta variantli, qisq javobli, insho, hujjatga asoslangan savollar (DBQ). Aniq ta'lim natijalari.

**3-mavzu. Tarixiy manbalar va materiallar bilan ishlash usullari**

Birlamchi va ikkilamchi manbalar bilan ishlash. Arxiv va kutubxonalardan foydalanish. Manbalarni tahlil qilish, ajratish, xolisligini belgilash va yakuniy xulosa taqdim qilishga o'rgatish. Tarixni o'qitish bo'yicha onlayn manbalar va ularning tavsifi. Tarixiy materiallarni tanlash va baholash. Internetdan mas'uliyat bilan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar.

**4-mavzu. Darsni rejalashtirish va loyihalashtirish**

O'quv maqsadlarini belgilash. O'quvchilarning egallashi talab etilgan bilim, ko'nikma va malakalar. Tarixiy mazmunning o'qitilishini ta'minlash.

Samarali tarix darslarini loyihalash. O'quv maqsadlarini kafolatlaydigan mashg'ulotlar, kontentlar, strategiyalar. Kontentni samarali yetkazib berishga xos o'qitish usullari va resurslar. Inklyuzivlikni ta'minlash. Izchil, mantiqiy va bashoratlangan darslarni loyihalash.

Tarixiy fanlarni tartibga solish. Xronologik tartib – tarixiy jarayonlar va voqealarning o'zaro aloqalari, sabab, natija va oqibatlarini tizimli tushunish. Konseptual tartib – muayyan mavzularni chuqur o'rganish, uzviylik va uzluksizlik. Fanlararo, kurs va bo'limlararo integratsiya.

**5-mavzu. Tarixni o'qitishda pedagogik yondashuvlar**

Ma'ruza asoslangan ta'lim (bilim va kontekstning asosi). So'rovga asoslangan ta'lim. Suqrotcha usul. Tanqidiy fikrlash va tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish. Tarixni o'qitishda hikoya qilishning o'rni (tarixiy voqealarni eslab qolish). Faol ishtirok etish, muloqot va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan interfaol strategiyalar. Munozaralar - munozaralarda o'z fikrini bildirish, o'z qarashlarini tasdiqlovchi dalillarni tadqiq qilish, notiqlik mahoratini rivojlantirish. Bahslar - tarixiy bahslarda faol ishtirok etish, turli nuqtai nazarlarni baholash va tahlil qilish. Simulyatsiyalar - rollar va ssenariylarni belgilash orqali o'quvchilarni tarixiy kontekstlarga ko'chirish, tarixiy sinovlar, diplomatik mashqlar. Tajribaviy o'rganish usullari, ekskursiyalar, artefaktlarni o'rganish. Tarixni o'qitish va amaliy tajriba o'rtasidagi aloqalar.

**6-mavzu. Tarix ta'limida o'quvchilar natijalarini baholash metodikasi va amaliyoti**

Mahalliy va halqaro baholash usullari. Kompetentlik darajalari asosidagi baholash. Tarix ta'limida keng qamrovli va mazmunli baholash strategiyasi. Formativ (shakllantiruvchi) baholash – tushunishni tekshirish, o'z-o'zini baholash. Summativ (umumlashtiruvchi) baholash – bob, bo'lim, chorak oxiridagi baholash (umumiy faoliyatni baholash). Summativ baholash shakllari - test, imtihon, tadqiqot loyihalari, maqolalar, taqdimot va og'zaki baholash hamda tarixiy tushuncha va kontekstlarni aks ettiruvchi portfoliolar tayyorlash. Haqiqiy baholash – tarixiy bilim va ko'nikmalarni amaliy vaziyatlarda qo'llashni baholash. Baholash shakllari - tarixiy xikoyalar va xronologik jadvallar tuzish, birlamchi manba hujjatlarini tahlil qilish, dalillarga asoslangan xulosa

Reyting qo'llanmasini (baholash mezonlari va ishlash darajalarini belgilash) ishlab chiqish. O'quv dasturlari standartiga mos o'quv maqsadlarini baholash. Tarixiy obyektivlik, dalillardan to'g'ri foydalanish, argumentlik sinonimini keltir, Baholashdagi izchillik.

O'zaro qaytar va teskari aloqa. Motivatsion darajalarni belgilash, o'quvchilarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish. So'rovlar, anketalar.

**7-mavzu: O'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish "4K" modeli**

Tarixiy empatiyani rivojlantirish. Tarixni insonparvarlashtirish. Vaqt va zamon makoniga xos munosabat kompetentligini shakllantirish. Turli nuqtai nazar va qarashlarni tahlil qilish, o'z tahminlariga shubha bildirish, tanqidiy fikr bildirish. Tarixiy tahlil va mustaqil fikrlash.

Manbalarni tahlil qilish va talqin qilishni rag'batlantirish orqali tanqidiy baholashga o'rgatish. Tahliliy va tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirish. O'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda "4K" modeli.

**8-mavzu. Tarix ta'limida texnologiyalar integratsiyasi**

Tarix fanini o'qitishda texnologiyalardan samarali foydalanish. Tarixiy ma'lumot va axborotlarni yig'ish va tahlil qilishda raqamli vositalar va resurslardan foydalanish. Onlayn ma'lumot bazalari, arxivlar va tadqiqot platformalaridan samarali foydalanish. Raqamli tarix manbalari. Raqamli hujjatlar, rasmlar, xaritalar, video va interfaol vaqt jadvallari. Raqamli tarix resurslari orqali tarixni multimedia kontenti orqali qiziqarli o'qitish. Vizual o'qitish texnologiyasi. Qo'shma onlayn loyihalar. Boshqa sinf yoki maktablar bilan hamkorlik tashabbuslari. Hamkorlikdagi tadqiqotlar, munozara va ko'rgazmalar tashkil qilish mexanizmlari. Jamoaviy ish va madaniyatlararo tushunishni tashkil qilish. Axborot va multimedia savodxonligi, raqamli kompetentlikni rivojlantirish usullari.

**9-mavzu. Inklyuziv va xilma xil tarix ta'limi**

Tarix o'quv dasturlariga inklyuzivlikni targ'ib qilish. Halqaro darajadagi faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish.

Tarix ta'limida inklyuzivlik va tenglik. O'quvchilarning fiziologik, jismoniy va psixologik ta'sirga ega extiyojlarini hisobga olish. Turli va maxsus o'qitish usullari. Shaxsiylashtirilgan ta'lim, individual yondashuv, parsial dasturlar. Turli xil ehtiyojlarga ega o'quvchilar uchun inklyuziv sinf muhitini yaratish usullari. Empatiya va inklyuzivlikni targ'ib qilish. Turli o'quvchilar bilan ishlash bo'yicha kasbiy mahoratni oshirish. Inklyuzivlik va xilma xillikni qadrlashga o'rgatish, farqlarni tushunish va moslashishga xos xayotiy ko'nikmalarni shakllantirish. Ijobiy inklyuziv ta'lim tajribasini shakllantirish.

## 10-mavzu. Tarix fani o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish

Butun hayot davomida ta’lim olish tamoyili. Tajribalarni kengaytirish imkoniyatlarini faol izlash. O‘quv seminarlar, kurslar va o‘z o‘zini boshqarishda ishtirok etish. Yangi pedagogik yondashuvlar, turli tarixiy tadqiqotlar bilan muntazam tanishish va joriy etish. Tarix o‘qituvchilari bilan o‘zaro muloqot, hamkorlik, ma’lumot almashish, ilg‘or tajribalarni almashish. Tajriba-sinov ishlari orqali samarali o‘qitish usullari. Pedagogik faoliyatni xalqaro darajadagi tavsiyalar bilan yangilab borish. Tarix ta’limi bo‘yicha so‘nggi yo‘riqnomalar, o‘quv dasturlari va eng samarali amaliyotlardan xabardor bo‘lish. Jahon ta’lim standartlariga mos ko‘rsatmalarga rioya qilish. Tarix o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash. Yuqori sifatli tarix ta’limini taqdim qilish.

## 11-mavzu. Tarix fanini o‘qitishni baholash

Tarix o‘qitish samaradorligini baholashga qaratilgan refleksiv amaliyot. Muntazam, tizimli o‘qitish usullari, strategiyalari va natijalari. O‘qitish amaliyotini tahlil qilish va takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash.

## III. Seminar mashg‘ulotlari buyicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlar talabalarning ma’ruza darslarida o‘tilgan bilimlarni mustahkamlash va qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanish va ularga asoslanilgan holda chuqur va atroflicha bilim olishlariga yordam beradi va turli manbalardan yig‘ilgan ma’lumotlarni tahlil qilishga va mvzular yuzasidan ilmiy va manbaviy jihatdan asoslangan ma’lumotlarga ega bo‘lishga imkon beradi.

**Seminar mashg‘ulotlari uchun quyidagi mavzularni tavsiya etish ko‘zda tutilgan:**

1. Tarix o‘qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari
2. Tarix ta’lim bo‘yicha milliy va xalqaro standartlarga mos darsliklar, ularning tahlili hamda ularga qo‘yiladigan zamonaviy talablar
3. Tarixiy manbalar bilan ishlash. Elektron manbalardan foydalanish
4. Darslarning turlari va ularni rejalashtirish
5. Ma’ruzaga va so‘rovga asoslangan ta’lim
6. Tarix ta’limida o‘quvchilar natijalarini baholash metodikasi va amaliyoti
7. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda “4K” modeli.
8. Onlayn ma’lumot bazalari, arxivlar va tadqiqot platformalaridan samarali foydalanish
9. Axborot va multimedia savodxonligi, raqamli kompetentlikni rivojlantirish usullari.
10. Tarix o‘quv dasturlariga inklyuzivlikni targ‘ib qilish
11. Tarix fani o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish
12. Tarix bo‘yicha sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar

Seminar mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihzlangan auditoriyada bir akadem guruh yoki bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

**Mustaqil ta'limni baholash** – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

**Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Tarixning fan sifatidagi ahamiyatini va uning ta'limdagi o'rnini belgilash.
2. Tarixni o'qitish tizimining tadriji va taraqqiyoti.
3. Tarixni o'qitish bo'yicha tadqiqotlar, ularning tahlili.
4. Tarixni o'qitishda xorij tajribasi.
5. Tarix ta'limida talab etiladiga kompetensiyalar va ularni takomillashtirish uslublari.
6. Tarix ta'lim bo'yicha xalqaro standartlarga mos darsliklar, ularning tahlili va o'ziga xos xususiyatlari.
7. Darsliklar kontentining ilmiy tadqiqotlar va tarixiy dalillarga asoslanilganligi.
8. Bir nechta variantli, qisq javobli, insho, hujjatga asoslangan savollar (DBQ).
9. Birlamchi va ikkilamchi manbalar bilan ishlash.
10. Arxiv va kutubxonalardan foydalanish.
11. Manbalarni tahlil qilish, ajratish, xolisligini belgilash va yakuniy xulosa taqdim qilishga o'rgatish.
12. Tarixni o'qitish bo'yicha onlayn manbalar va ularning tavsifi.
13. Tarixiy materiallarni tanlash va baholash.
14. Internetdan mas'uliyat bilan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar.
15. O'quvchilarning egallashi talab etilgan bilim, ko'nikma va malakalar. Tarixiy mazmunning o'qitilishini ta'minlash.
16. Samarali tarix darslarini loyihalash.
17. O'quv maqsadlarini kafolatlaydigan mashg'ulotlar, kontentlar, strategiyalar. Izchil, mantiqiy va bashoratlangan darslarni loyihalash.
18. Tarixiy fanlarni tartibga solish. Xronologik va konseptual tartib
19. Fanlararo, kurs va bo'limlararo integratsiya.
20. Ma'ruza asoslangan ta'lim (bilim va kontekstning asosi).

| | |
|---|---|
| | 21. So'rovga asoslangan ta'lim. Suqrotcha usul.<br>22. Tanqidiy fikrlash va tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish.<br>23. Tarixni o'qitishda hikoya qilishning o'rni (tarixiy voqealarni eslab qolish).<br>24. Faol ishtirok etish, muloqot va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan interfaol strategiyalar.<br>25. Munozaralar - munozaralarda o'z fikrini bildirish, o'z qarashlarini tasdiqlovchi dalillarni tadqiq qilish, notiqlik mahoratini rivojlantirish.<br>26. Bahslar - tarixiy bahslarda faol ishtirok etish, turli nuqtai nazarlarni baholash va tahlil qilish.<br>27. Simulyatsiyalar - rollar va ssenariylarni belgilash orqali o'quvchilarni tarixiy kontekstlarga ko'chirish, tarixiy sinovlar, diplomatik mashqlar.<br>28. Tajribaviy o'rganish usullari, ekskursiyalar, artefaktlarni o'rganish.<br>29. Tarixni o'qitish va amaliy tajriba o'rtasidagi aloqalar.<br>30. Tarix ta'limida keng qamrovli va mazmunli baholash strategiyasi. Formativ (shakllantiruvchi) baholash – tushunishni tekshirish, o'z-o'zini baholash.<br>31. O'quv dasturlari standartiga mos o'quv maqsadlarini baholash.<br>32. Motivatsion darajalarni belgilash, o'quvchilarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish.<br>33. Tarixiy empatiyani rivojlantirish.<br>34. Tarixni insonparvarlashtirish.<br>35. Vaqt va zamon makoniga xos munosabat kompetentligini shakllantirish.<br>36. Turli nuqtai nazar va qarashlarni tahlil qilish, o'z tahminlariga shubha bildirish, tanqidiy fikr bildirish. Tarixiy tahlil va mustaqil fikrlash.<br>37. Tahliliy va tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirish.<br>38. O'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda "4K" modeli.<br>39. Tarix fanini o'qitishda texnologiyalardan samarali foydalanish.<br>40. Tarixiy ma'lumot va axborotlarni yig'ish va tahlil qilishda raqamli vositalar va resurslardan foydalanish.<br>41. Raqamli tarix manbalari.<br>42. Vizual o'qitish texnologiyasi.<br>43. Halqaro darajadagi faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish.<br>44. Tarix ta'limida inklyuzivlik va tenglik.<br>45. O'quvchilarning fiziologik, jismoniy va psixologik ta'sirga ega extiyojlarini hisobga olish.<br>46. Ijobiy inklyuziv ta'lim tajribasini shakllantirish.<br>47. Tajribalarni kengaytirish imkoniyatlarini faol izlash.<br>48. O'quv seminarlar, kurslar va o'z o'zini boshqarishda ishtirok etish.<br>49. Yangi pedagogik yondashuvlar, turli tarixiy tadqiqotlar bilan muntazam tanishish va joriy etish.<br>50. Tarix o'qituvchilari bilan o'zaro muloqot, hamkorlik, ma'lumot almashish, ilg'or tajribalarni almashish. |

| | |
|---|---|
| | 51. Tajriba-sinov ishlari orqali samarali o‘qitish usullari.<br>52. Pedagogik faoliyatni xalqaro darajadagi tavsiyalar bilan yangilab borish.<br>53. Jahon ta’lim standartlariga mos ko‘rsatmalar bilan tanishish<br>54. Tarix o‘qitish samaradorligini baholashga qaratilgan refleksiv amaliyot.<br>55. Muntazam, tizimli o‘qitish usullari, strategiyalari va natijalari.<br>56. O‘qitish amaliyotini tahlil qilish va takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash.<br><br>Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| 3. | **V. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o‘zlashtirish natijasida **talaba:**<br>tarix o‘qitish metodikasi fani va uning barcha bo‘limlari, tarix o‘qitish metodikasi o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr, dasturlar, darsliklar va ularga qo‘yiladigan ilmiy-metodik talablar, akademik lisey va kasb-hunar kollejlarida o‘qitiladigan tarix fanlarini o‘qitish metodlarini o‘rgatish;<br>o‘quvchilar ongida tarixiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirish, tarix o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, metodlari va vositalarini o‘rgatish.Tarix o‘qitishning tashkiliy shakllari, dars, uning turlari va tuzilishi bilan uzviy bog‘lab o‘qitish metodikasi qonuniyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi **(bilim)**;<br>tarix o‘qitish metodikasiga kursini o‘zlashtirgan talaba qobiliyat va iste’dodini shakllantirish va rivojlantirish, zamon talablari, innovasion pedagogik texnologiyalar asosida tarix o‘qitishga bo‘lgan munosabatlarni shakllantirish;<br>yangi axborot texnologiyalarini qo‘llab, olgan bilimlarini pedagogik va ilmiy faoliyatida qo‘llay olish kabi bilishi va ulardan foydalana olishi **(ko‘nikma)**;<br>tarix o‘qitish metodikasi fanini o‘qitishda ta’lim texnologiyalari, elektron plakatlar, tarqatma materiallar, elektron darsliklar va qo‘llanmalar, virtual laboratoriyalar, internet ma’lumotlari, lokal tarmoqdagi turli o‘quv, ilmiy bilimni nazorat qilish bo‘yicha ma’lumotlar jamlamasidan foydalanish;<br>mustaqil ta’lim, aqliy hujum, vaziyatli masalalarni yechish, rolli o‘yinlar, referatlar yozish kabi pedagogik usullar bilan o`qitish;<br>o‘quvchilarni baholay olish to‘g‘risida malakalariga ega bo‘lishi **(malaka)** kerak. |
| 4. | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma’ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo‘lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar |

| | |
|---|---|
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur. |
| 6. | **VIII. Asosiy adabiyotlar**<br>1. Ishmuxamedov.R. Yuldashev.M. Ta'lim va tarbiyada innavatsion pedagogik texnologiyalar. T.2013<br>2. Ishmuxamedov R. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. - T., 2010.<br>3.Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: TDPU, 2003.<br>4. Mansurov. U. Raxmatullayeva A. Tarix o'qitish metodikasi.-T.: 2019.<br>5.Fuzailova G.S. va boshqalar. Tarix o'qitish metodikasi. - T.: TDPU, 2008.<br>6. Toshpo'latov T., G'afforov Y. Tarix o'qitish metodikasi. (bakalavriat yo'nalishidagi talabalar uchun darslik). – T.: O'zMU - Universitet, 10 2010.<br>7. Tolipova J., Usmanbayeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – T., 2006.<br>8. Shodmonov Sh. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent:2011.<br>9. Gafforov Ya.X. Tarix o`qitish metodikasi. T.: 2022.<br><br>**IX. Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 488 b.<br>2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2016. - 56 b.<br>3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi.- Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 48 b.<br>4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 104 b.<br>5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.<br>6. Ganiyeva M., Fayzullayev D. Kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash pedagogik texnologiyalar to'plami. - Toshkent: Iqtisodiėt, 2013.– 44b.<br>7. Ganiyeva M., Fayzullayyev D., Ne'matov I. Maqsadni belgilash va uch darajali testlarni ishlab chiqishning pedagogik texnologiyalari to'plami. Metodik qo'llanma. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2013. – 95 b.<br>8. Ganiyyeva M., Fayzullayyev D., Ne'matov I. Nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalari to'plami - Toshkent: Iqtisodiėt, 2013.<br>9. Ganiyeva M., Fayzullayyev D. Zamonaviy o'qitish vositalarining pedagogik texnologiyalari to'plami. - Toshkent: Iqtisodiėt, 2013.–95 b.<br>10. Golish L.V., Xashimova D.P. Ta'lim jarayonida interfaol ta'lim |

| | |
|---|---|
| | uslublari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. – Toshkent: TDIU, Iqtisodiѐt, 2013.<br>11. Mansurov U Tarix darslarida mustaqil ta'limni tashkil etish T., 2019.<br>12. Egambrerdiyeva N. O'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishda badiiy pedagogika imkoniyatlaridan foydalanish. - T.: 2011.<br>**Internet manzillari:**<br>http://www.gov.uz– O'zbekiston Respublikasi xukumati portali.<br>www.pedagog.uz<br>www.cspi.uz<br>www.pedagog.uz<br>www.edu.uz<br>www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)<br>www.ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portali |
| 7. | Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil "29.08" 1-son dagi qarori bilan tasdiqlangan |
| 8. | **Fan/modul uchun ma'sul:**<br>**S.A.Toshtemirova** - CHDPU, Jahon tarixi kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Ph.D), dotsent.<br>**D.B.Axmadjanov** – ChDPU, "Jahon tarixi" kafedrasi dotsenti v.b., p.f.f.d. (PhD). |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>**R.B.Yarmatov** - Jizzax davlat universiteti professori, p.f.d. (DSc)<br>**Ya.X.G`afforov** - ChDPU "O`zbekiston tarixi" kafedrasi professori, t.f.n. |